



TONG OBRAZINING POETIK TALQINI: ISMOIL TO'LAK VA RAUF PARFI SHE'RLARI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL

ERALIYEVA SARVINOZ OYBEK QIZI

ADU Filologiya fakulteti O'zbek adabiyoti yo'nalishi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida muhim ramziy obrazlardan biri bo'lgan "tong" tushunchasi Ismoil To'lak va Rauf Parfining bir nomdagi she'rlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tong obrazining badiiy-falsafiy mazmuni, ramziy funksiyasi hamda poetik tafakkurdagi o'rni aniqlanadi. She'rlar tahlili orqali shoirlarning individual ijodiy qarashlari va estetik yo'nalishlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tong obrazi, ramziylik, metafora, poetik tafakkur, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Kirish

Adabiyotda tong obrazi ko'pincha hayotiy harakat, yangilanish va ruhiy uyg'onish bilan bog'liq holda talqin etiladi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyatida ushbu obraz an'anaviy ma'nodan chiqib, inson ruhiyati va tarixiy ong bilan uzviy aloqada ifodalanmoqda. Ismoil To'lak va Rauf Parfi ijodida tong obrazi markaziy poetik timsollardan biri bo'lib, ularning "Tong" nomli she'rlari mazmuni bir-biridan farq qiluvchi, ammo umumiy ramziy asosga ega asarlar sifatida e'tiborni tortadi. Mazkur maqola ana shu o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism



Dastlab tahlilga tortilgan ikki asardan birinchisi Ismoil To'lakning "Tong" she'riga e'tibor qaratamiz:

Ismsiz sevinchdan,
Jismsiz sevinchdan
ovozi
bo'g'ziga tiqilgan go'dakning
ko'zlari qizargan,
yuzlari bo'zargan.
U bir so'z aytmoqqa
shaylangan

Borliq
uning bog'zidagi
so'zga aylangan.
-QUYOSH!..

Ana endi Rauf Parfining "Tong" she'rini ham ko'rib chiqamiz:
Tong otmoqda... Tong o'qlar otar.
Tong otmoqda. Quyosh—zambarak,
Yaralangan Yer shari yotar:
Boshlarida yashil chambarak.

Ismoil To'lak she'rida tongning poetik talqini

Ismoil To'lak "Tong" she'rida tongni tashqi tabiat manzarasi sifatida emas, balki inson ichki olamida kechayotgan ruhiy jarayon sifatida tasvirlaydi. She'r boshidagi mavhum iboralar tongni aniq shaklga ega bo'lmagan sezgi va holat sifatida anglash imkonini beradi. Bu holat shoirning ichki kechinmalarini poetik markazga olib chiqishidan dalolat beradi.



Tong “ovozi ichida qolgan go’dak” obraziga qiyoslanadi. Ushbu metafora haqiqatning hali ifodalanmagan, ammo mavjud holatni anglatadi. Ruhiy zo’riqish, og’riq va ichki keskinlik she’r davomida asta-sekin kuchayib boradi. Asar yakunida tong Quyosh obrazi orqali o’zining aniq shakliga ega bo’ladi. Bu Quyosh—nur manbai emas, balki anglangan haqiqat va ichki ozodlik timsolidir.

Rauf Parfi she’rida tongning ijtimoiy-falsafiy mazmuni

R.Parfining “Tong” she’rida tong obrazi kengroq—tarixiy va kosmik miqyosda tasvirlanadi. Asar boshidan boshlab tong tinchlik emas, balki qarama-qarshilikni boshlab beruvchi kuch sifatida namoyon bo’ladi. Shoir tongni faol harakat, keskin burilish sifatida talqin etadi.

Quyoshning qurolga qiyoslanishi shoir poetikasida dramatik keskinlikni kuchaytiradi. Yer sharining “yaralangan” holda tasvirlanishi insoniyat boshdan kechirgan tarixiy fojealarga ishora qiladi. Shu bilan birga yashil rang orqali ifodalangan obrazlar she’rda umid va hayot davomiyligi g’oyasini saqlab qoladi. Demak, tong bu yerda fojea va umid uyg’unligida talqin qilinadi.

Qiyosiy tahlil

Har ikki she’rda tong ramziy ma’noda uyg’onish nuqtasi sifatida talqin etilgan bo’lsa-da, ularning badiiy yo’nalishi turlicha. Ismoil To’lak tongni individual ruhiy holat bilan bog’lasa, Rauf Parfi uni umumiy insoniy va tarixiy jarayonlar bilan uyg’unlashtiradi. Birinchi holatda tong ichki kechinmalarning yakuni bo’lsa, ikkinchisida bu global jarayonlarning boshlanish nuqtasiga aylanadi. Quyosh obrazi ham har ikki she’rda markaziy o’rinni egallaydi. Biroq uning ramziy yuklamasi farqlidir. Ismoil To’lakda quyosh anglangan haqiqatni ifodalasa, Rauf Parfida u keskin kuch va ta’sir ramzi sifatida namoyon bo’ladi.

Xulosa



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Ismoil To'lak va Rauf Parfi "Tong" she'rlari orqali bir xil obrazga turli estetik va falsafiy ma'no yuklaydilar. Ismoil To'lak tongni shaxsiy ruhiy uyg'onish sifatida talqin etsa, Rauf Parfi uni tarixiy ong va insoniyat taqdiri bilan bog'laydi. Har ikki talqin ham zamonaviy o'zbek she'riyatida tong obrazini badiiy imkoniyatlari keng ekanini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Parfi R. Saylanma.-Toshkent, 2013.
2. To'lak I. Erk shabadalari.-Toshkent, 2007.
3. Zamonaviy o'zbek adabiyoti masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar.